



№4

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo'rayev Abdug'affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg'ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug'bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo'rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o'g'li – mas'ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№049864**





MUNDARIJA			
1.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Uzoq muddatli davrda davlat-xususiy sheriklik rivojlanishning muqobil ssenariylari	7
2.	Умарова Зумрад Низомиддин кизи	Консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузиш: таъминлар, усуллар ва замонвий ёндашувлар	13
3.	Sayipov Begzod Rahimovich	Valyuta kursi va mehnat bozori barqarorligi o'rtasidagi makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashda monetar siyosatning roli	25
4.	Sharipov G'ulomjon Qarshi o'g'li	Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari	32
5.	Кабилова Шахноза Жураевна	Организационно-управленческий механизм развития сферы услуг в малом бизнесе (на примере Кашкадарьинской области)	38
6.	Xamdamov Sardor Farmon o'g'li	Davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solishning xorijiy tajribasi va undan milliy amaliyotda foydalanish imkoniyatlari	43
7.	Primkulova Zilola Abrorovna	Xususiy tibbiyot tashkilotlarida xarajatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning nazariy asoslari	48
8.	Kilichev Alisher Akramovich	Mavsumiy ishlab chiqarishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning xorijiy tajribasi va undan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari	52
9.	Vaisov Dilshod Ibodullayevich	Xorijiy amaliyotda kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini rivojlantirishning integratsiyalashgan institutsional yondashuvlari	57
10.	Nematullayev Hamidullo Azizillo o'g'li	Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini transformatsiyalash va MHXSga o'tish istiqbollari	65
11.	Мурадов Бахром Акрамжанович	Темир йўл соҳасида инновацион инфратузилмани ривожлантириш механизмлари	72
12.	Адилов Рустам	Модели кредитного скоринга на основе больших данных: влияние на рост выручки финтех-компаний	78
13.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Investitsiya muhitini qulaylashtirish orqali hududiy investitsiya mexanizmini faollashtirish	84
14.	Саттаров Тулкин Абдихалилович	Ишлаб чиқариш харажатларининг корхоналар молиявий ҳолатига таъсири	92
15.	Kholikov Khamidulla	The current state of government securities market operations in Uzbekistan's financial market and existing problems	101
16.	Mahmudov Fayzulla Murodullayevich	Mintaqa iqtisodiy rivojlanishida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	113
17.	Uralov Farruh Abdurazzoqovich	Hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasining baholanishi	119
18.	Anvarova Lobarxon Sherzod qizi	Big Data va analitik platformalar asosida qaror qabul qilish tizimini rivojlantirish	125
19.	Tojimurodov Shohzod	Mamlkat aholisining bank kreditlari bo'yicha qarz yuki tahlili va uni optimallashtirish yo'llari	131
20.	Doniyev Shahob O'tkir o'g'li	Iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning tutgan roli hamda ahamiyati	137
21.	Razikova Nozima Erkin qizi	Biznes subyektlarini moliyalashtirish asosida aholi bandligini ta'minlash	142
22.	Назарова Дияра	Совершенствование цифровых подходов к оценке кредитоспособности хозяйствующих субъектов в коммерческих банках Республики Узбекистан	153
23.	Mirmahmudova Xusniddinovna	O'zbekiston kapital bozorida sukukka institutsional investorlarni jalb etish istiqbollari	160





24.	Djamalov G‘ofir Oribjanovich	Bank aktivlari sifatini oshirishda muammoli qarzlar va garov ta‘minotini boshqarish usullari	167
25.	Vaxabov Bobur Alisherovich	Raqamli to‘lov infratuzilmasida moliyaviy xatarlarni boshqarish va axborot xavfsizligini ta‘minlash mexanizmlari	179
26.	Abdurazakov Shavkat Shokirdjanovich	Turizm klasterlari faoliyatini moliyaviy va soliq mexanizmlari orqali iqtisodiy rag‘batlantirishni takomillashtirish	191
27.	Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich	Raqamli iqtisodiyot sharoitida aholi daromadlarini boshqarish mexanizmlari	202
28.	Salomov Abdusalom Ismatovich	Hududiy infratuzilma ta‘minotiga “Yashil” standartlarni joriy etish yo‘llari	207
29.	Орипов Ильхом Абдуллаевич	Проблемы формирования национальной системы зеленого финансирования в странах с переходной экономикой	214
30.	Tulyaganov Kudratilla Asatullayevich	O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini transformatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari	225
31.	Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	Temir yo‘l transporti korxonalarida ekologik-iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishning tashkiliy-iqtisodiy va innovatsion mexanizmlari	232
32.	Uralov Elshod Sirojiddin o‘g‘li	Mintaqalarda institutsional-iqtisodiy hamkorlikning shakllari va rivojlanish xususiyatlari	240
33.	Qodirov Bahodir Qudratovich	Bevosita soliq solishni optimallashtirish va yashillashtirish masalalari	245
34.	Agabekyan Roza Samvelovna	O‘zbekistonda loyihaviy moliyalashtirish asosida investitsiya resurslarini jalb qilish mexanizmini takomillashtirish	251
35.	Ерманова Камила Рустамовна	Цифровые финансовые инструменты в системе финансирования креативных индустрий: переоценка возможностей и ограничений	258
36.	Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna	Raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholash metodlarining rivojlanish bosqichlari	267
37.	Kalandarov Jamolbek Ravshonovich	O‘zbekistonda mikro, kichik va o‘rta biznesni kreditlash dinamikasi: 2026 yil yarim yillik natijalari va Silk Road Finance & Technology forum kontekstidagi tahlil	274
38.	Ergashev Rustam Rajabovich	Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishning huquqiy boshqaruv arxitekturasini takomillashtirish	280
39.	Sulaymonov Iskandar Boxodir o‘g‘li	Venchur kapital jalb etish samaradorligi indeksi (VKJSI): davlat va xususiy kapital multiplikativ samaradorligini baholash modeli	287
40.	Toshpo‘latov Shohruh Sobirjon o‘g‘li	Milliy iqtisodiyotda ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishning institutsional asoslari va moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish	294
41.	Salamov Islom Tashkazakovich	Banklarning transformatsion jarayonlarini ekonometrik tahlili	304
42.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	O‘zbekiston fond bozorida “Xalq IPO”si mexanizmlarini takomillashtirish va institutsional investorlar ishtirokini kengaytirish yo‘llari	312
43.	Radjabova Malikaxon	Elektron tijorat faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishning zaruriyati va ahamiyati	323





44.	Sultanova Gulshira Alimbetovna	Suv taqchilligi sharoitida sholichilik tarmog'ining innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)	332
45.	Jumaniyazov Inojon Turayevich	Suveren fondlar samaradorligini baholashning truman-bagnall metodologiyasi	339
46.	Abdullayev Dilmurod Toxirmirzayevich	Davlat maqsadli jamg'armalari xarajatlari ustidan davlat moliyaviy nazoratini o'tkazishni takomillashtirish	350
47.	Abdushayitov Abdumannobbek Abdumutal o'g'li	Tashabbusli budjet xarajatlari ustidan davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish masalalari	357
48.	Zokirov Sardor To'liqin o'g'li	Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda raqamli infratuzilmaning o'rni	362
49.	Asrorov Dalerjon Zafarovich	Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish masalalari	368
50.	Umaraliyev Sanjar Sultonaliyevich	Hududlar investitsion muhit jozibadorligini baholashning zamonaviy metodologiyasi	374
51.	Axmedova Nafisa Amirdin qizi	O'zbekistonda agrooziq-ovqat ishlab chiqarish dinamikasi va uni innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari	380





O‘ZBEKISTONDA AGROOZIQ-OVQAT ISHLAB CHIQARISH DINAMIKASI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI

Axmedova Nafisa Amirddin qizi

*Toshkent davlat
iqtisodiyot universiteti
katta o‘qituvchisi (PhD)*

<https://orcid.org/0009-0009-0669-2347>

e-mail: n.akhmedova@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion taraqqiyot sharoitida O‘zbekiston agrooziq-ovqat tizimida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning iqtisodiy va institutsional mexanizmlari kompleks tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida 2020-2025-yillarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi va tarmoqdagi struktura o‘zgarishlari chuqur tahlil qilingan. Ishda raqamlashtirish, resurs tejamkor agroteknologiyalar hamda zamonaviy agrologistikaning soha barqarorligini ta’minlashdagi roli ilmiy asoslab berilgan. Oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi tizimli muammo va xatarlar aniqlanib, innovatsion texnologiyalarni agrar ishlab chiqarish hamda qiymat zanjiriga joriy etish obyektiv zaruriyat ekanligi ko‘rsatilgan. Tadqiqot natijalari asosida mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini innovatsion mexanizmlar orqali takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, innovatsion rivojlanish, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat mahsulotlari, raqamlashtirish, agroinnovatsiya, oziq-ovqat ta’minoti, resurs tejamkor texnologiyalar, logistika, barqaror rivojlanish.

ДИНАМИКА ПРОИЗВОДСТВА АГРОПРОДОВОЛЬСТВИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕГО ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ

Ахмедова Нафиса Амирдин кизи

*Старший преподаватель
Ташкентского государственного
экономического университета, PhD*

ORCID: [0009-0009-0669-2347](https://orcid.org/0009-0009-0669-2347)

E-mail: n.akhmedova@tsue.uz

Аннотация. В данной статье комплексно исследованы экономические и институциональные механизмы обеспечения продовольственной безопасности агропродовольственной системы Узбекистана в условиях инновационного развития. В рамках исследования проведен глубокий анализ динамики производства продовольственной продукции и структурных изменений за 2020–2025 годы. Научно обоснована роль цифровизации, ресурсосберегающих агротехнологий и современной агрологистики в обеспечении устойчивости отрасли. Выявлены ключевые системные проблемы и риски, влияющие на продовольственную безопасность, и доказана объективная необходимость внедрения инновационных технологий в сельскохозяйственное производство и цепочки поставок. На основе полученных результатов разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию механизмов обеспечения продовольственной безопасности.

Ключевые слова: продовольственная безопасность, инновационное развитие, сельское хозяйство, продукты питания, цифровизация, агроинновации, продовольственное обеспечение, ресурсосберегающие технологии, логистика, устойчивое развитие.

DYNAMICS OF AGRO-FOOD PRODUCTION IN UZBEKISTAN AND ECONOMIC





MECHANISMS FOR ITS INNOVATIVE DEVELOPMENT

Nafisa Amirddin qizi Akhmedova

*Senior Lecturer at
Tashkent State*

University of Economics, PhD

ORCID: [0009-0009-0669-2347](https://orcid.org/0009-0009-0669-2347)

E-mail: n.akhmedova@tsue.uz

Abstract. *This article presents a comprehensive study on the economic and institutional mechanisms for ensuring food security within the agri-food system of Uzbekistan under the conditions of innovative development. The research conducts an in-depth analysis of food production dynamics and structural changes during the period of 2020–2025. The scientific and practical significance of digitalization, resource-saving agrotechnologies, and modern agrologistics in sustaining sector resilience is thoroughly substantiated. Key systemic bottlenecks and risks threatening food security are identified, emphasizing the objective necessity of integrating innovative technologies into agricultural production and supply chains. Based on the findings, actionable policy recommendations and practical solutions are formulated to enhance food security through advanced innovative mechanisms.*

Keywords: *food security, innovative development, agriculture, food production, digitalization, agro-innovation, food supply, resource-saving technologies, logistics, sustainable development.*

Kirish.

Zamonaviy sharoitda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash makroiqtisodiy barqarorlik, aholi farovonligi va milliy xavfsizlikni belgilab beruvchi **strategik drayver** sifatida namoyon bo'lmoqda. Global miqyosda demografik o'sish sur'atlarining jadallashuvi, iqlim o'zgarishlari va tabiiy ofatlar xavfining ortishi, unumdor yer hamda suv resurslarining cheklanganligi, xalqaro bozorlarda oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarining keskin tebranishi hamda logistika va ta'minot zanjirlaridagi uzilishlar oziq-ovqat tizimlarining barqarorligiga bo'lgan tahdidlarni tobora kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi, energiya resurslari narxlarining o'zgaruvchanligi va tashqi bozorlarga yuqori darajadagi bog'liqlik oziq-ovqat mahsulotlarining **narx va jismoniy jihatdan hamyonbopligi** masalasini yanada dolzarb etmoqda. Bunday sharoitda oziq-ovqat xavfsizligini faqatgina qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali emas, balki ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, logistika va realizatsiya jarayonlarini yagona **agrooziq-ovqat tizimi** sifatida rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hamda resurslardan samarali foydalanish asosida ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi kategoriyasining zamonaviy konseptual mazmuni faqatgina aholini miqdoriy jihatdan mahsulotlar bilan ta'minlash (*Food Availability*) bilan cheklanmaydi. U oziq-ovqat mahsulotlarining jismoniy va iqtisodiy foydalana olishligi (*Physical and Economic Access*), mahsulot sifat va xavfsizlik standartlari hamda ta'minot tizimining uzoq muddatli barqarorligini (*Sustainability*) o'zida mujassam etgan **tizimli yondashuvni** talab qiladi.

O'zbekiston sharoitida ushbu masalaning ustuvorligi aholi demografik o'sishi hisobiga ortib borayotgan iste'mol talabini qondirish, agrar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, suv resurslarini tejash va **"daladan dasturxongacha"** bo'lgan qiymat zanjirini modernizatsiya qilish zaruriyati bilan tozalanadi. Mamlakatda agrosektorni diversifikatsiya qilish, oziq-ovqat xavfsizligini kafolatlash hamda sohaga ilg'or agrotexnologiyalarni tatbiq etishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Innovatsion transformatsiya oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning yangi texnologik parametrlarini shakllantirmoqda. Jumladan, raqamli qishloq xo'jaligi (*Precision Agriculture*), sun'iy intellekt, masofaviy zondlash (GIS), aqlli sug'orish tizimlari, biotexnologiya hamda





avtomatlashtirilgan agrologistika platformalarini joriy etish tarmoqda resurs samaradorligini oshirishning asosiy vositasiga aylanmoqda.

O'zbekiston agroziq-ovqat tizimi so'nggi yillarda barqaror o'sish dinamikasini namoyon etmoqda. Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarida yaratilgan mahsulotlar hajmi **538 919,7 mlrd so'mni** tashkil etib, o'sish sur'ati 2024-yilga nisbatan **4,4 foizga** yetdi. Shuningdek, 2025-yilda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi **152,1 trln so'mni** tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **9,7 foizlik** ijobiy dinamikani ko'rsatdi. Mazkur iqtisodiy o'sish tendensiyasi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini innovatsion rivojlanish konsepti bilan integratsiyalashgan holda tadqiq etishning ilmiy va amaliy zaruriyatini asoslab beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Oziq-ovqat xavfsizligi masalasi iqtisodiy fanlarda uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinayotgan yo'nalishlardan biridir. Dastlabki tadqiqotlarda oziq-ovqat xavfsizligi asosan mamlakatning oziq-ovqat mahsulotlarini yetarli miqdorda ishlab chiqarish qobiliyati bilan bog'langan bo'lsa, zamonaviy ilmiy qarashlarda mazkur tushuncha ancha keng mazmun kasb etgan. FAO yondashuvida oziq-ovqat xavfsizligi barcha insonlarning faol va sog'lom hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlariga jismoniy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan doimiy ravishda ega bo'lish imkoniyati bilan izohlanadi [1]. J. von Braun va M. Torero tadqiqotlarida oziq-ovqat xavfsizligi oziq-ovqat bozorlarining barqarorligi, zaxiralarni boshqarish va aholining zaif qatlamlarini himoya qilish bilan bog'liq holda tadqiq etilgan [2].

J. Pretty qishloq xo'jaligida ekologik va resurs tejamkor texnologiyalardan foydalanish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi [3]. Ushbu yondashuv O'zbekiston uchun ham muhim bo'lib, suv va yer resurslarining cheklanganligi sharoitida oziq-ovqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Raqamlashtirish masalasida zamonaviy tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar fermerlarning axborotdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishi, ishlab chiqarish jarayonlarini monitoring qilishni yaxshilashi va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishi ta'kidlanadi.

O'zbekistonda ham qishloq xo'jaligini raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va agrar bilimlar tizimini rivojlantirishga e'tibor kuchaymoqda. FAO tomonidan O'zbekistonda qishloq xo'jaligini raqamlashtirish bo'yicha Milliy harakatlar dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, unda aqlli sensorlar, geofazoviy texnologiyalar, narxlarni monitoring qilish va qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlarini rivojlantirish nazarda tutilgan. Mavjud tadqiqotlardan farqli ravishda ushbu maqolada oziq-ovqat xavfsizligi ishlab chiqarish hajmi bilan chegaralanmay, innovatsion texnologiyalar, raqamlashtirish, resurslardan samarali foydalanish, saqlash, logistika va oziq-ovqat mahsulotlarining sifati bilan uzviy bog'liq yagona tizim sifatida qaraladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida tizimli, statistik, qiyosiy va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Statistik tahlil yordamida 2020–2025-yillarda O'zbekistonda qishloq xo'jaligi hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishining dinamikasi o'rganildi. Qiyosiy tahlil orqali turli yillardagi ishlab chiqarish hajmlari va o'sish sur'atlari o'zaro taqqoslandi. Tizimli yondashuv asosida oziq-ovqat xavfsizligi ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, logistika, taqsimot va iste'mol bosqichlarini o'z ichiga oluvchi yagona tizim sifatida tadqiq qilindi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari, xalqaro tashkilotlar materiallari, ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etdi.

Tahlil va natijalar

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining 2020-2025-yillardagi dinamikasi Oziq-ovqat xavfsizligining asosiy iqtisodiy omillaridan biri mamlakatning qishloq xo'jaligi ishlab





chiqarish salohiyatidir. Shu sababli dastlab qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining so‘nggi yillardagi dinamikasini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

1-jadval
2025-yilda ayrim qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishining o‘sish*

Paxta	125,4
Poliz mahsulotlari	116,2
Don	113,0
Uzum	107,6
Meva	106,4
Tuxum	107,0
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, jami	104,4
Paxta	125,4

***Manba:** O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, 2025-yil yanvar–dekabr ma’lumotlari.

Jadvaldan ko‘rinadiki, 2025-yilda paxta ishlab chiqarish 25,4 foizga, poliz mahsulotlari 16,2 foizga, don 13,0 foizga, uzum 7,6 foizga, meva 6,4 foizga va tuxum ishlab chiqarish 7,0 foizga oshgan. Don ishlab chiqarishining 13 foizga oshishi oziq-ovqat xavfsizligi uchun ayniqsa muhim. Chunki don mahsulotlari aholining asosiy oziq-ovqat ehtiyojlarini qondirishda strategik ahamiyatga ega. Biroq oziq-ovqat xavfsizligini faqat don yoki boshqa alohida mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmi bilan baholash to‘liq natija bermaydi. Oziq-ovqat tizimida mahsulotlarning xilma-xilligi, oziqlanish qiymati, narxlarning aholining daromadlariga mosligi va mahsulotlarning hududlar bo‘yicha teng taqsimlanishi ham muhimdir. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning 2025-yildagi holati Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining o‘sishi oziq-ovqat sanoati uchun xomashyo bazasini kengaytiradi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash orqali qo‘shilgan qiymat yaratish va oziq-ovqat mahsulotlari taklifini oshirish mumkin.

2-jadval
2025-yilda O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha yetakchi hududlar

Hudud	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, trln so‘m
Toshkent shahri	27,6
Toshkent viloyati	21,5
Samarqand viloyati	19,5
Farg‘ona viloyati	11,6
Buxoro viloyati	11,3
Qashqadaryo viloyati	10,2
Andijon viloyati	9,6
Namangan viloyati	8,5
Navoiy viloyati	7,9
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	6,6
Xorazm viloyati	6,0
Sirdaryo viloyati	5,4
Jizzax viloyati	3,3
Surxondaryo viloyati	3,2
O‘zbekiston Respublikasi, jami	152,1





Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2025-yilda O‘zbekistonda jami 152,1 trln so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, bu 2024-yilga nisbatan 9,7 foiz ko‘pdir.

Hududlar kesimida Toshkent shahri 27,6 trln so‘m bilan yetakchi o‘rinni egallagan. Keyingi o‘rinlarda Toshkent viloyati — 21,5 trln so‘m va Samarqand viloyati — 19,5 trln so‘m bilan qayd etilgan. Mazkur hududiy tafovut oziq-ovqat sanoati ishlab chiqarish quvvatlarini hududlar bo‘yicha muvozanatli rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, xomashyo bazasi mavjud bo‘lgan, biroq qayta ishlash sanoati nisbatan past rivojlangan hududlarda zamonaviy oziq-ovqat korxonalarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Oziq-ovqat xavfsizligida innovatsion texnologiyalarning ahamiyati innovatsion texnologiyalar oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning barcha bosqichlariga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Birinci navbatda, raqamli texnologiyalar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Masalan, tuproq namligini o‘lchaydigan sensorlar, sun‘iy yo‘ldosh ma‘lumotlari, dronlar va GIS texnologiyalaridan foydalanish orqali ekinlarning holatini muntazam kuzatish mumkin.

Ikkinchidan, innovatsion texnologiyalar suv resurslaridan samarali foydalanishga yordam beradi. Suv tanqisligi sharoitida aqlli sug‘orish tizimlarining joriy etilishi oziq-ovqat ishlab chiqarishning barqarorligini oshiradi.

Uchinchidan, zamonaviy saqlash va sovutish texnologiyalari mahsulotlarning nobud bo‘lishini kamaytiradi. Ayniqsa, meva-sabzavot mahsulotlari bo‘yicha sovuq zanjirni rivojlantirish mavsumiy taklifni yil davomida barqarorlashtirish imkonini beradi.

To‘rtinchidan, raqamli logistika tizimlari ishlab chiqaruvchi va iste‘molchi o‘rtasidagi masofani qisqartirish, transport xarajatlarini kamaytirish va yetkazib berish muddatlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Tahlillar asosida O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga ta‘sir etuvchi asosiy muammolarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Suv resurslarining cheklanganligi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining katta qismi suv resurslariga bog‘liq bo‘lganligi sababli suvdan samarali foydalanish masalasi strategik ahamiyatga ega.

2. Iqlim o‘zgarishi. Haroratning o‘zgarishi, qurg‘oqchilik va tabiiy-iqlimiy xavflar hosildorlikka salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

3. Saqlash infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi. Ayrim mahsulotlarning ishlab chiqarishdan keyingi bosqichda yo‘qotilishi oziq-ovqat ta‘minoti samaradorligini pasaytiradi.

4. Qayta ishlash darajasini oshirish zarurati. Xomashyoni tayyor mahsulotga chuqur qayta ishlash orqali oziq-ovqat sanoatida qo‘shilgan qiymatni oshirish mumkin.

5. Kichik ishlab chiqaruvchilarning innovatsiyalarga kirish imkoniyatlari. Dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining ishlab chiqarishdagi ulushi yuqori bo‘lgani sababli innovatsiyalar aynan ushbu xo‘jaliklarga ham yetib borishi zarur.

2025-yil ma‘lumotlariga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining 62,3 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, 29,4 foizi fermer xo‘jaliklari va 8,3 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Bu ko‘rsatkich kichik ishlab chiqaruvchilarni innovatsion tizimga faol jalb qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijasida O‘zbekiston sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning innovatsion konsepsiyasini quyidagi o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlar asosida shakllantirish taklif etiladi:

Ishlab chiqarish → qayta ishlash → saqlash → logistika → taqsimot → iste‘mol → monitoring.

Mazkur tizimda raqamli texnologiyalar barcha bosqichlarni birlashtiruvchi vosita sifatida





xizmat qilishi lozim.

3-jadval

Oziq-ovqat xavfsizligini innovatsion rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Innovatsion mexanizm	Kutiladigan natija
Qishloq xo‘jaligi	Aqlli dehqonchilik, dron, GIS, sensorlar	Hosildorlik oshishi
Suv xo‘jaligi	Aqlli sug‘orish tizimlari	Suv sarfi kamayishi
Seleksiya	Iqlimga chidamli navlar	Hosil barqarorligi
Qayta ishlash	Zamonaviy texnologik liniyalar	Qo‘shilgan qiymat oshishi
Saqlash	Sovutish va zamonaviy omborlar	Yo‘qotishlar kamayishi
Logistika	Raqamli logistika platformalari	Yetkazib berish samaradorligi
Bozor	Raqamli narx monitoringi	Bozor shaffofligi
Sifat nazorati	Raqamli kuzatuv va laboratoriyalar	Oziq-ovqat xavfsizligi
Kadrlar	Innovatsion agrota’lim	Inson kapitali rivoji
Boshqaruv	Boshqaruv	Boshqaruv

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Mazkur konsepsiyaning asosiy xususiyati oziq-ovqat xavfsizligini faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali emas, balki butun oziq-ovqat qiymat zanjirini innovatsion asosda boshqarish orqali ta’minlashdan iborat.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat ishlab chiqarishining so‘nggi yillarda ijobiy dinamikaga ega ekanligini ko‘rsatdi. 2020–2025-yillarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining hajmi sezilarli darajada oshgan. 2025-yilda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 538 919,7 mlrd so‘mga yetib, 2024-yilga nisbatan 4,4 foiz o‘shish qayd etilgan.

Shuningdek, 2025-yilda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 152,1 trln so‘mga yetgani va bir yil davomida 9,7 foizga oshgani oziq-ovqat sanoatining rivojlanish salohiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini uzoq muddatli istiqbolida ta’minlash uchun faqat ishlab chiqarish hajmini oshirishning o‘zi yetarli emas. Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishdan iste’molchigacha bo‘lgan barcha jarayonlarni innovatsion asosda tashkil etish talab qilinadi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, oziq-ovqat xavfsizligini baholashning kompleks milliy indikatorlar tizimini shakllantirish zarur. Ushbu tizimda oziq-ovqat mahsulotlari mavjudligi, aholining xarid qobiliyati, narxlar barqarorligi, mahsulot sifati, importga bog‘liqlik va oziq-ovqat yo‘qotishlari kabi ko‘rsatkichlar hisobga olinishi kerak.

Ikkinchidan, oziq-ovqat xavfsizligining yagona raqamli monitoring platformasini yaratish maqsadga muvofiq. Unda ishlab chiqarish, zaxiralar, narxlar, import-eksport, logistika va iste’mol bo‘yicha ma’lumotlar integratsiya qilinishi lozim.

Uchinchidan, suv tejovchi va iqlimga moslashuvchan agroteknologiyalarni kengaytirish zarur. Ayniqsa, sensorlar, sun‘iy yo‘ldosh monitoringi va aqlli sug‘orish texnologiyalaridan foydalanish oziq-ovqat ishlab chiqarish barqarorligini oshiradi.

To‘rtinchidan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash infratuzilmasini modernizatsiya qilish kerak. Bu orqali mavsumiy yo‘qotishlarni kamaytirish va oziq-ovqat mahsulotlari taklifining barqarorligini oshirish mumkin.

Beshinchidan, kichik ishlab chiqaruvchilarni innovatsion jarayonlarga jalb qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. 2025-yilda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining 62,3 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelgani ushbu yo‘nalishning naqadar muhimligini ko‘rsatadi.

Oltinchidan, ilm-fan, oliy ta’lim, innovatsion markazlar va ishlab chiqaruvchilar





oʻrtasidagi hamkorlikni kuchaytirish lozim. Bu yangi agrotexnologiyalarni tezroq ishlab chiqarishga joriy etish imkonini beradi.

Yettinchidan, oziq-ovqat mahsulotlarini “ishlab chiqaruvchidan isteʼmolchigacha” kuzatish imkonini beruvchi raqamli tizimni kengaytirish maqsadga muvofiq. Bunday tizim mahsulot sifati va xavfsizligi ustidan nazoratni kuchaytiradi.

Sakkizinchidan, hududlar boʻyicha oziq-ovqat sanoatining ixtisoslashuvini hisobga olgan holda innovatsion oziq-ovqat klasterlarini rivojlantirish zarur. Bu xomashyo yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va sotish jarayonlarini yagona tizimga birlashtirish imkonini beradi.

Umuman olganda, Oʻzbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlashning kelgusi bosqichi “ishlab chiqarish hajmini oshirish” modelidan “innovatsion, raqamli, resurs tejamkor va barqaror oziq-ovqat tizimi” modeliga bosqichma-bosqich oʻtishni talab qiladi. Mazkur yondashuv nafaqat oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini koʻpaytirish, balki ularning sifati, narx barqarorligi, aholiga yetib borishi va uzoq muddatli mavjudligini taʼminlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. FAO. (2006). *Food Security*. Policy Brief, Issue 2. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations.
2. von Braun, J., & Torero, M. (2009). Physical and virtual global food reserves to protect the poor and prevent market failure. *IFPRI Policy Brief*.
3. Pretty, J. (2008). Agricultural sustainability: Concepts, principles and evidence. *Philosophical Transactions of the Royal Society B: Biological Sciences*, 363(1491), 447–465.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga moʻljallangan strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida. PF-5853-son Farmon.
5. Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi. (2025). *Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari umumiy hajmi, 2010–2024-yillar*. SIAT maʼlumotlar bazasi.
6. Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi. (2025). *Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi mahsulotlari va xizmatlarining umumiy hajmi*. SIAT maʼlumotlar bazasi.
7. Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi. (2026). *Oʻzbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati: 2025-yil yanvar–dekabr*.
8. Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi. (2026). *Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda qaysi hudud yetakchi?*
9. FAO. *National Programme of Action for the Digitalization of Agriculture in Uzbekistan*. Food and Agriculture Organization of the United Nations.
10. World Bank. (2022). *Food Security Update*. Washington, DC: World Bank.
11. United Nations. (2015). *Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development*. New York: United Nations.
12. Swinnen, J. (2018). *The Political Economy of Agricultural and Food Policies*. Palgrave Macmillan.

